

O`zbekiston Res`ublikasi Oliy va O`rta mahsus
ta`lim vazirligi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Buhalteriya hisobi va audit” fakulteti

“Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrası

K U R S I S H I

Маавзу: Uzoq muddatli kredit va qarzlar hisobi va auditi.

Toshkent —2012

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“ “ kafedrasi mudiri

“ _____ ” “ _____ ” 2012 y

Toshkent - 2012

R E J A

KIRISH

Asosiy qism:

1. Kreditning mohiyati va zaruriyati.
2. Kredit xarakatining bosqichlari va vazifalari.
3. Majburiyatlarning turlari, baholanishi va ular hisobining vazifalari.

Texnologik qism:

4. Majburiyatlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Uzoq muddatli qarzlarni hisobini yuritish.
6. Majburiyatlar auditi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Kredit soʻzi lotincha soʻz boʻlib, pul mablagʻlari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama toʻlab qaytarib berish sharti bilan maʼlum muddatga qarzga berishdir. Qarzga mablagʻ beruvchi tomon kreditor, yaʼni davlat, bank, korxona, xususiy shaxs, ssuda oluvchi tomon esa debitor, yaʼni qarzdor deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Kredit munosabatlari bozor iqtisodiyoti sharoitida muxim ahamiyat kasb etib, mavjud resurslarda samarali foydalanish kuroli sifatida katta rol oʻynaydi.

Kredit munosabatlari vujudga kelishi uzoq tarixga ega boʻlib, u sudxoʻrlilik kapitalini vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida qaror topdi. Bunda maʼlum shaxslar oʻz pullarini maʼlum xaq (protsent) evaziga oʻzgalarga yaʼni pulga extiyoji bor kishilarga qarzga berganlar.

Xozirgi davrda kreditning zarurligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Takror jarayonida maxsulotni sotish bilan amalga oshirishni, yaʼni korxonalar oʻz maxsulotlarini sotib olgunga qadar yana uzluksiz amalga oshirish uchun pul mablagʻlariga extiyoj sezadilar.

2. Kreditlashtirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishda qoʻshimcha kapital mablagʻlar xamisha xam korxonada oʻz mablagʻlari hisobiga qoplanmaydi. Bunda sharoitda qoʻshimcha mablagʻlarga boʻlgan extiyoj vujudga keladi.

3. Korxona va aloxida shaxslarda oʻz iqtisodiy faoliyatlari natijasida vaqtincha boʻsh pul mablagʻlari vujudga keladi va bu pul mablagʻlarini boshqa xuquqiy va jismoniy shaxslarga qarzga berish mumkin boʻladi.

Kredit munosabatlarda mavjud boʻlishini muxim shart-sharoitlaridan biri kredit beruvchi va kredit oluvchilarda manfaatlarini oʻzaro mos kelishidir. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagicha tahriflanadi:

Kredit – bu qarz oluvchiga foiz koʻrinishidagi xak evaziga qaytarib berish sharti bilan beriladigan ssuda kapitalining xarakat shaklidir. Kreditning muxim xususiyatlarini uning qaytarib berishini shartliligi, muxim xaq evaziga xamda maʼlum muddatga berilishidir.

1. Kreditning mohiyati va zaruriyati.

Kreditning mohiyatini tushunishda kreditning tarkibini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditning tarkibi – bu undagi bir qaror o'zgarmas elementlardir. Shunday elementlardan bir kreditning subhektlaridir. Kredit subhektlari xududiy jihatdan bir biridan turlicha uzoqlashgan bo'lishi mumkin, lekin bu xolat ularning o'zaro majburiyatlari xarakteriga tahsir etmaydi. Kredit aloqalarida subhektlar munosabatlari qarz beruvchi (kreditor) va qarz oluvchi (qarzdor) shaklida yuzaga chiqadi. Kreditor va qarzdor eng avvalo tovar muomalasi doirasida qaror topadi. Tovarlarni olish sotish jarayoni xamisha xam sotuvchi tomonidan sotgan tovari qiymati ekvivalentini birdaniga olish imkoninin bermaydi. Balki mahlum davrdan keyingina uni olishga muvaffaq bo'ladi. Boshqacha aytganda sotuvchi o'z tovarini oluvchiga mahlum muddatga qarzga sotadi.

Shunday qilib, kreditor – bu kredit aloqalarining bir tomoni bo'lib, u ssuda beradi. Boshqacha aytgandi ssuda beruvchi yoki real mavjud narsani vaqtincha foydalanish uchun berib turuvchi xar qanday subhekt kreditor bo'la oladi. Ssuda berish uchun esa kreditor mahlum mablag'larga ega bo'lishi lozim. Bu mablag'larning manbalari xilma-xil bo'lishi mumkin. Jumladan, o'z mablag'lari, resurslari, shuningdek, boshqalardan vaqtincha, qaytarib berish sharti bilan jalb qilgan mablag'lar.

Xozirgi kunda bank-kreditor ssuda berishda nafaqat o'z moliyaviy resurslaridan balki undan hisob schetlarida saqlanayotgan xamda aktsiya va obligatsiyalarni chiqarish orqali jalb etilgan mablag'lardan xam foydalanish.

Banklarning tashkil topishi bilan kreditorlarning kontsentratsiyala-shuvi yuz berdi va natijada banklar barcha kreditorlarning vakillariga aylandilar. Kreditorlar kollektivi vakili sifatida banklar xalq xo'jaligidagi barcha vaqtincha bo'sh mablag'larni kredit extiyojlariga jalb qilishi mumkin.

Ayrim xollarda munosabatlariga vaqtincha bo'sh bo'lmagan resurslar xam jalb etilishi mumkin. Bunda kreditor (sotuvchi) qarz oluvchiga sotilishi lozim bo'lgan tovarlarni taqdim etadi.

Kreditorning ssuda mablag`lariga nisbatan munosabati ikkiyoqlamadir. Kreditorning kredit shaklida beriladigan o`z resurslari uning mulki sifatida saqlanib qoladi. CHetdan jalb qilingan, lekin kreditor tomonidan kredit shaklida joylashtiriladigan resurslarining mulkdor sifatida egasi korxonalar, tashkilotlar va axoli hisoblanadi. SHuning uchun banklar (kreditor) kreditlash mexanizmini shunday tashkil etishlari lozimki, bunda jalb qilingan mablag`larni xaqikiy egalari talab qilgan taqdirda, ularni uz vaqtida qaytarib berish imkoniyati mavjud bulsin.

Qarz oluvchi – bu kredit munosabatlarining bir tomoni bo`lib, u kredit oladi va olgan ssuda qaytarib berish majburiyatiga ega bo`ladi.

Tarixan qarz oluvchi qo`shimcha kun resurslariga extiyoji sezgan aloxida shaxslar bo`lgan. Xozirgi davrda esa qarz oluvchi sifatida banklardan tashqari xo`jalik tashkilotlari va katta davlatlar maydonga chiqmoqda. Axoli xam anhanaviy kredit oluvchilardan hisoblanadi.

Qarz oluvchi kreditordan quyidagilar bilan farq qiladi:

1. Qarz oluvchi ssudaga olingan mablag`larining mulkdor sifatida egasi emas, balki bu resurslarning vaqtincha egasi sifatida maydonga chiqadi. Qarz oluvchi unga tegishli bo`lmagan begona resurslardan foydalanadi.

2. Qarz oluvchi ssudaga olingan mablag`lardan muomala soxasida xam ishlab chiqarish soxasida xam foydalanadi. Kreditor esa undan faqat muomala soxasida foydalanadi.

3. Qarz oluvchi uz xo`jaligida krugoborotni tugatgan mablag`lar hisobidan ssudaga olingan mablag`larni qaytaradi.

4. Qarz oluvchi nafaqat ssudaga olingan summani, balki mahlum qo`shimchasi bilan qaytaradi yoki u ssuda foizini to`lovchi hisoblanadi.

5. Qarz oluvchi xamisha kreditorga bo`ysunadi, kreditor esa xamisha unga o`z shartlarini o`tkazishga xarakat qiladi.

Kreditor bilan qarz oluvchi orasidagi munosabatlar, ularning o`zaro bir-biri bilan aloqasi xaqikatda takror ishlab chiqarish ichki obhekti o`rtasidagi munosabatdir.

Bu munosabatlar, birinchidan ularning xar biri mustaqil xuquqiy shaxs ekanligini, ikkinchidan, ularning bir-biri oldida mulkiy javobgar ekanligini va uchinchidan, o`zaro bir-biridan iqtisodiy manfaatdor bo`lgan subhektlar ekanligini ifodalaydi.

SHuni tahkidalash lozimki, xar qanday ssuda olishni xoxlovchi qarz oluvchi bo`la olmaydi. Qarz oluvchi nafaqat xuquqiy va jismoniy shaxs bo`lishi. Balki olingan kreditni qaytarishni garantiyalovchi tegishli mol-mulkka xam ega bo`lishi lozim.

2. Kredit xarakatining bosqichlari va vazifalari.

Kreditning xususiyati nafaqat uni tarkibi bilan balki uni xarakatini bosqichlari bilan xam xarakterlanadi.

Ssuda qiymatini xarakatini quyidagicha ifodalash mumkin

$K_j - K_{ko} - K_i \dots R_b \dots K_k - K_{kko}$

K_j – kreditni joylashtirilishi

K_{ko} – kreditni qarz oluvchi tomonidan olinishi.

K_i – kreditni ishlatilishi

R_b – Respublikani bo`shashi

K_k – kreditni qaytarish

K_{kko} – kredit shaklida joylashtirilgan mablag`larni kreditor tomonidan qaytarib olinishi.

Kreditni joylashtirish amaliyeta muxim o`rin tutadi. Kreditor o`z mablag`larini qo`shimcha resurslarga extiyoji bo`lgan xar qanday xuquqiy va jismoniy shaxslarga ochiq qullik bilan tarqatib bermaydi. Bunda xar bir xolatda kreditor kredit mablag`laridan ratsional va samarali foydalanish xamda bu mablag`larni qaytarilishiga kafolot borligini extiborga oladi.

Kreditni qarz oluvchi tomonidan olinishi unga vaqtincha pul mablag`lari bo`lgan vaqtincha extiyojini qondirish imkoniyatini beradi. Kredit qiymatida qarz oluvchi egaligiga o`tishi unga kredit istemol qiymatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunga esa kreditdan foydalanish natijasida erishiladi. Kreditni

ishlatilish yo`nalishi qarz oluvchini o`z oldiga qo`ygan maqsadlari bilan belgilanadi.

Kredit resurslarini bo`shatilishi qarz oluvchi xo`jaligida qiymatlar doiraviy aylanishini tugashini xarakterlaydi. Bu faza keyingi kreditni qaytarish bosqichi uchun moddiy asos yaratadi. Kreditni qaytarish bosqichi qarz oluvchi tomonidan vaqtincha qarzga olingan qiymatlarni kreditorga o`tishini xarakterlaydi, yahni qarz oluvchi xo`jaligida vaqtincha «Mahlum ish bajargan qiymat o`zini vaqtinchalik egasidan kreditorga qayta o`tadi». Kreditni qaytarilishi real yoki formal bo`lishi mumkin. Agar kredit resurslar – bu resurslarni xo`jalik faoliyatida bo`shatilishi natijasida qaytarilsa bunga kreditni real qaytarilishi deyiladi.

Agar kredit resurslari – xo`jalik faoliyatidan bo`shamagan xolatda, boshqa manbalar hisobidan kamaytarilsa, bu kreditni formal qaytarilishi deyiladi. Kreditni formal qaytarilishi kredit resurslaridan samarasiz foydalanilganligini ifodalaydi.

Kredit xarakatini tugallovchi bosqich – kredit shaklida joylashtirilgan mablag`larni kreditor tomonidan qaytarib olinishi. Bu bosqich vaqt jixatdan kreditni qaytarish bilan bir xil bo`lishi mumkin.

Kreditning quyidagi vazifalari mavjud:.

Birinchidan, pulga tenglashtirilgan to`lov vositalarini (masalan veksel, chek sertifikat va x.k) ezaga chiqarib, ularni xo`jaliik obarotiga jalb qiladi.

Ikkinchidan, u bo`sh pul mablag`larini xarakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib pulni topadi degan qoidani amalga oshiradi.

Uchinchidan, qarz berish orqali pul mablag`larini turli tarmoqlar o`rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko`chib turishini taxminlash.

To`rtinchidan, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy usishni ragbatlantirish.

Kredit va undan foydalanish natijasida turli natijalarga erishiladi. Bu natijalar salbiy yoki ijobiy bo`lishi mumkin.

Ijobiy natijalar deganda kreditdan samarali foydalanish natijasida kulga kiritilgan yutuklar tushuniladi. Masalan Andijonni Asaka shaxrida asosan bank krediti hisobidan kurilgan yangi avtomobil zavodi respublikaning yongil

avtomobillarga bo'lgan ehtiyojini Mahlum darajada qondirilsa va jaxon bozorida munosib o'rin egallasa bu kreditning ijobiy yutug'i (roli) hisoblanadi.

Kreditni salbiy roli asosan quyidagi ikki xolatda namoyon bo'ladi.

1. Kredit x/x ga turli yo'llar bilan asossiz ravishda ko'p berilsa va okibatda pul massasi ko'payib, milliy pul kadsizolansa.

2. Agar olingan xalqaro kreditlardan smarali foydalanilmasa va mamlakat o'zining boshqa daromad manbalari masalan oltinni sotish hisobidan kreditni qaytarsa.

Kreditningboshqa iqtisodiy kategoriya sifatida boshqa iqtisodiy kategoriyalar, jumladan, pul, moliya, baxo, xo'jalik hisobi bilan uzviy aloqada bo'ladi. Bunga asosiy sabablar:

Birinchidan, bu kategoriyalar umumiy asosga egadir, yahni qiymatning xarakati bilan bog'liqdir. SHuning uchun bu kategoriyalar qiymat kategoriyalari deb xam yuritiladi.

Ikkinchidan, bu qiymat kategoriyalarining o'zaro bog'liqligiga sabab, ular xarakat qiladigan tokror ishlab chiqarish jarayoning yagonaligidir. CHunki ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va istxmol jarayonini bir-biri bilan bog'liqdir, shuning uchun bu bosqichlarga xos bo'lgan iqtisodiy kategoriyalar xam umumiy bog'liqlikka ega bo'ladi.

Uchinchidan, bu iqtisodiy kategoriyalar yagona iqtisodiy asosga egadir, yahni ular bozor munosabatlari doirasida amal qiladilar va bozor iqtisodiyoti konunlariga bo'ysunadilar.

SHu bilan birga bilan iqtisodiy kategoriyalar mazmunan bir-biridan farq qilib, turli iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Kredit va pul. Kredit ko'p xollarda pul shaklida berilsada, kredit va pul muzmunan bir-biridan farq qiladi. Kredit tahkidlaganimizdek subhektlar o'rtasidagi o'ziga xos munosabat shaklidir. Bu kategoriyalar o'rtasidagi xususiyat eng avvalo ishtrokchilarning tarkibi bilan bog'liq. Bizga mahlumki pul umumiy ekvivalent sifatida sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga

keldi. Bunda qiymat xamisha xarakatda bo`ladi, tovar sotuvchidan xaridorga o`tadi, pul esa xaridordan sotuvchiga o`tadi.

Kredit munosabatlarida esa kreditor va qarz oluvchi ishtrok etadi. Lekin bunda qiymat qarama-qarshi xarakatda bo`lmaydi, yahni kreditor bergan pulni qarz oluvchi Mahlum muddat o`tgandan so`nggina qaytaradi. Kredit va pul o`rtasidagi muxim farqlardan biri ularning xarakat shaklidir. Chunki kredit nafaqat pul shaklida balki boshqa xilma-xil tovarlar shaklida xam amal qilishi mumkin

Kredit va moliya. Bu iqtisodiy kategoriyalar o`zaro bir-biridan iqtisodiy munosabatlarning subhektlari bilan farq qiladi. Agar moliya mablag`lari to`lovchilar bilan uni oluvchilar o`rtasidagi munosabatlarni ifodalasa, kredit esa kreditor bilan qarz oluvchi o`rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Bunda tashqari kredit va moliya qiymat kategoriyalar sifatida o`z manbalariga ko`ra xam farq qiladi.

Agar kredit mablag`larining manbasi vaqtincha bo`sh turgan va o`z navbatida qarzga olingan mablag`lardan tashkil bulsa, moliya mablag`lari esa vaqtincha bo`sh mablag`lar va ularning ishlatilishi bilan bog`liq bo`lmaydi masalan: davlat byudjetiga soliq to`lovchilar bu mablag`lar o`z xo`jaliklari uchun kerak bo`lgan taqdirda xam soliq to`lashga majburlirlar.

Kredit munosabatlarida berilayotgan mablag`larning egasi o`zgarmaydi, yahni kreditor mulkdor sifatida saqlanib koldi. Lekin moliya munosabatlarida berilayotgan mablag`larning egasi o`zgaradi, yahni endi bu mablag`lar davlatning mulki hisoblanadi.

Kredit va moliya bir-biridan o`z xarakat bosqichlari bilan xam farq qiladi. Agar moliyaning xarakat bosqichi turli fondlarni (markazlashgan va markazlashmagan) tashkil etishdan boshlansa, kredit xarakati mablag`larni boshqalarga qarz berishdan boshlanadi. Chunki kredit munosabatlarida mablag`larning to`planishi xali kredit bo`la olmaydi.

Kreditning muxim farqlaridan biri uni qaytarib berishning shartliligidir. Bu xususiyat kreditning xamma shakllariga xosdir.

Kredit va moliya yuqorida taxkidlangandek bir-biridan farq kilsada, shu bilan birga ikkisi xam xalq xo`jaligi korxonalarining ishlab chiqarish fondlarini vujudga keltirishning ishlab chiqarish fondlarini vujudga keltirishning manbalari bo`lib xizmat qiladi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalaniladi.

Kredit va baxo. Bizga mahlumki baxo – bu qiymatning pulda ifodalanishidir. Lekin kredit – qiymatning xarakat shaklidir. SHu bilan birga baxo – qiymatning ifodasi sifatida kredit xajmini hisoblashda muxim o`rin tutadi.

Kreditni asosini ssuda fondi tashkil etadi. Boshqacha aytganda kredit bu ssuda fondining xarakat shaklidir. Ssuda fondi bu jamiyatdagi qarzga beriluvchi qiymatning maqsadga yo`naltirilgan xarakat borasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlarining majmuasini xarakterlaydi.

Ssuda fondining mazmuni uning quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi:

1. Ssuda fondi avvalo mulkiy munosabatlarni ifodalaydi. CHunki u o`z xarakatida doimo o`sib boradi va o`z egasiga daromad keltiradi. Lekin u shu bilan birga umummilliy, ijtimoiy boylikni ko`paytirishni moddiy asoslarni yaratishi orqali ijtimoiy manfaatlarga xam xizmat qiladi. Kredit munosabatlari turli tarmoqlardagi turli mulkchilikka asoslangan korxona va tashkilotlarni, shuningdek davlat va axolini qamrab oladi. SHu sababli ssuda fondi uning tarkib topishi va ishlatilishi borasida yuzaga keladigan xilma-xil munosabatlarni xarakterlaydi.

2. Ssuda fondi maqsadga yo`naltirilganlik xarakteriga ega bo`ladi. Bu maqsadga yo`naltirilgan bozor mexanizmi ssuda fondi mablag`larini jamiyat extiyohlari mavjud bo`lgan soxalarga yo`naltiradi.

3. Ssuda fondining muxim belgilaridan biri uning pul shaklida mavjud bo`lishidir. Boshqacha aytganda kredit moddiy qiymatliklarning pul shaklidagi xarakatidir.

4. Ssuda fondi moddiy jarayonlarga bog`liq bo`lganligi sababli, u jamiyat xo`jaligi resurslari bilan xam uzviy bog`liqdir. Boshqacha aytganda ssuda fondi jamiyat jami resurslarining bir qismi yoki jamiyat iqtisodiy potentsialining elementi hisoblanadi.

5. Ssuda fondining egasi eng avvalo kredit muassasi hisoblanadi, eng avvalo banklar, kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida ssud fondining eng yirik egalari hisoblanadi shu bilan birga banklardan tashqari takror ishlab chiqarish jarayoning boshqa subhektlari, jumladan, xo`jalik tashkilotlari, axoli xamda aktsionerlik, kooperativ asosida tashkil etgan ssuda fondalariga egalik qilishi mumkin.

6. Ssuda fondi xududiy tarqalgan bo`ladi. Masalan: kredit masalalarida ssuda fondi markaziy bo`limda yoki uning joylaridagi bo`limlariga joylashtirilishi mumkin.

7. Ssuda fondi bu yig`ilgan qiymatlarning kotib kolgan massasi emas, balki ularning xarakatidir.

3. Majburiyatlarning turlari, baholanishi va ular hisobining vazifalari.

Majburiyatlar, korxonaning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi qarzlarini bildiradi. Majburiyatlarni to`lanadigan schyotlar ham deb ataydilar. Majburiyatlar yoki to`lanadigan schyotlar deb tan olinishi uchun ular quyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- Majburiyatlar yuz berib o`tgan voqea va hodisalar, xo`jalik o`eratsiyalari natijasi bo`lib hisoblanishi kerak. Masalan, korxonaning ta`minotchilar oldidagi majburiyatlari ulardan tovar-moddiy boyliklarni to`lovni kelgusida amalga oshirish sharti bilan olinganligi natijasida vujudga keladi yoki korxonaning o`z xodimlari oldidagi qarzi ularga qilgan mehnatlari uchun ish haqini hisoblanishi natijasida aydo bo`ladi.

- Majburiyatlar summasi aniq o`lchanadigan va shubha tug`dirmaydigan bo`lishi kerak. Majburiyatlar summasini o`lchash ularni yuz bergan vaqtida namoyon bo`lgan haqqoniy qiymatlarida, kelgusi davrlarda esa valyutalar kurslaridagi o`zgarishlar bilan qayta hisoblangan diskontlangan qiymatlarda baholash yo`li bilan amalga oshiriladi. Majburiyatlarning shubha tug`dirmasligi ularning hujjatli asosga ega bo`lishligi bilan kafolatlanadi.

- Majburiyatlar ni vujudga keltirgan xo‘jalik munosabatlari, aktivlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar kelgusida korxonaga iqtisodiy manfaat olib kelishi lozim.

- Majburiyatlarni hisobda turishi va hisobdan chiqarilishi, qaytarilishi yoki to‘lanishi vaqt bo‘yicha chegeralangan bo‘lishi kerak. Belgilangan muddatlarda qaytarilmagan majburiyatlar korxonaga jarimalar to‘lash natijasida qo‘shimcha zararlar keltirishi va qo‘shimcha majburiyatlarni vujudga kelishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Korxonalarning majburiyatlarini turli belgilariga ko‘ra tasniflash mumkin.

Muddatiga ko‘ra korxona majburiyatlari uzoq va qisqa muddatli turlarga bo‘linadi. Uzoq muddatli majburiyatlarga bir yildan ko‘‘ muddatga olingan bank kreditlari va boshqa shaxslardan olingan qarzlar kiradi. Qisqa muddatli majburiyatlarga muddati bir yildan oshmaydigan barcha boshqa qarzlar (to‘lanadigan schyotlar) kiradi.

Harakteriga ko‘ra barcha majburiyatlar tovar harkteridagi va notovar harakteridagi majburiyatlarga bo‘linadi. Tovar harakteridagi majburiyatlarga ta‘minotchilar va ‘udratchilar oldidagi qarzlar, haridorlardan olingan avanslar bo‘yicha qarzlar qiradi. Notovar harakteridagi majburiyatlarga korxonaning ish haqi, sug‘urta, soliq va ajratmalar bo‘yicha qarzlari, ta‘sischilar va boshqa kreditorlar oldidagi qarzlari kiradi.

To‘lov muddatiga ko‘ra majburiyatlar joriy va muddati uzaytirilgan majburiyatlarga bo‘linadi. Joriy majburiyatlarga hisobot davr tugashi bilan to‘lanadigan qarzlar, masalan, ish haqi, ish haqi fondidan ajratmalar va ushlanmalar, soliqlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha qarzlar kiradi.

Muddati uzaytirilgan majburiyatlarga to‘lov muddati hukumat yoki turli kreditorlar tomonidan ma‘lum vaqtgacha kechiktirilgan qarzlar, masalan soliqlar, majburiy ajratmalar va boshqa to‘lovlar, kiradi. Majburiyatlar bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Majburiyatlarni asosli tan olish va real baholash;

- Majburiyatlarni vujudga kelishi va qoʻlanishini oʻz vaqtida tegishli hujjatlar bilan toʻgʻri rasmiylashtirish;
- Majburiyatlarni mazmuni, harakteri va boshqa belgilari boʻyicha ular uchun koʻzda tutilgan schyotlarda aks ettirish;
- Majburiyatlarning holati va harakati ustidan doimiy nazoratni olib borish;
- Majburiyatlarni oʻz vaqtida uzish, toʻlov muddatini oʻtib ketmasligi ustidan doimiy nazorat qilish;
- Voz kechilgan va daʼvo muddatlari oʻtib ketgan majburiyatlarni oʻz vaqtida va toʻgʻri korxona daromadlariga olinishini nazorat qilish;
- Majburiyatlar boʻyicha foizlarni toʻgʻri hisoblash va korxona harajatlariga oʻz vaqtida kiritib borish;
- Majburiyatlar boʻyicha hisobotlarni toʻgʻri va oʻz vaqtida tegishli organlarga yetqazish va boshqalar.

4. Majburiyatlar va ularning oʻziga xos xususiyatlari.

Toʻlanadigan schetlar. Toʻlanadigan schetlar – takrorlanadigan savdo majburiyatlari uchun moʻljallangan mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob schetlari. Bu majburiyatlar firmaning asosiy faoliyati davomida vujudga kelib, tovar va materiallarni sotib olish, yetkazib berishni, shuningdek, firma tovar va xizmatlarini ishlab chiqarayotganda va sotayotganda foydalanadigan xizmatlarni oʻz ichiga oladi. Savdo schetlari tahrifiga toʻgʻri kelmaydigan boshqa xamma kreditorlik qarzi (masalan, daromad soligʻi va uzoq muddatli qarzning joriy qismi) toʻlanadigan schetlardan aloxida koʻrsatilishi kerak.

Garov bilan tahminlangan toʻlanadigan veksellarning ochib berilishi garovga qoʻyilgan aktivlarning identifikatsiyasini oʻz ichiga olgan xolda, qarz majburiyati toʻgʻrisidagi boshlangʻich kelishuv shartlarini oʻrganib chiqishni oʻz ichiga olishi kerak. Toʻlanadigan veksel foizli va foizsiz boʻlishi mumkin. Foizli veksel foiz stavkasiga ega. Bu stavka *belgilangan foiz stavkasi* deyiladi. Foizsiz veksellarda aniq foiz koʻrsatilmaydi, buning oʻrniga ularda *real foiz stavkasi* yoki *foiz daromadi* deb ataladigan foiz normasi aks ettiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, qanday nomlanishidan qathiy nazar, xamma qarz xujjatlari bevosita yoki bilvosita qarzidor tomonidan foizlar to'lashini talab qiladi. Bu vaqt o'tishi bilan pulning kadsizlanishini cheklab bo'lmasligi uchun qilinadi. Qarz majburiyati bo'yicha davriy foiz summasi - bu:

$$\text{Qarzning asosiy summasi} \times \text{Foiz stavkasi} \times \text{Vaqt} = \text{Foiz summasi}$$

Belgilangan foiz stavkasi – bu qarz xujjatida ko'rsatilgan foiz normasidir. Belgilangan foiz stavkasi qarzning asosiy summasi uchun to'lanadigan foiz to'lovlarining summasini aniqlaydi. Bunga nisbatan, qarz bo'yicha *real foiz stavkasi* – bu ushbu davrga mablag'larni qarzga olishdagi bozor foiz stavkasidir. Real foiz stavkasi qarzning kelgusi pul to'lovlarini diskontlash uchun qo'llaniladi. Qarzidor tomonidan olingan pul mablag'lari yoki pul ekvivalentlari summasiga real foiz stavkasi qo'llaniladi.

Foizli veksellar. Foizli veksellar vekselning asosiy summasini nominal qiymat sifatida aniq ko'rsatadi. Bundan tashqari, vekselda belgilangan foiz stavkasi ko'rsatiladi. Foizli veksel bo'yicha qarzidor nominal qiymatga teng pul mablag'lar, boshqa aktiv yoki xizmatlar oladi, keyin esa bu summa bilan belgilangan foiz stavkasi bo'yicha foizlarni xam tayinlangan muddatda qaytarib beradi. Bunday shartlarda belgilangan va real foiz stavkalari bir xil. Bu odatdagi xol.

Debet 5110 «Hisob-kitob» scheti 10000

Kredit 6020 «To'lanadigan veksel, qisqa muddatli 10000

2004 yil 31 dekabr – Foizni hisoblash to'g'risidagi tuzatish yozuvi:

Debet 9610 «Foizlar bo'yicha xarajat»

$$(10\,000) \times (12\%) \times (3/12) = 300$$

Kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» 300

2004 yil 31 dekabr – Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot:

Foizlar bo'yicha xarajat 300

Buxgalteriya balansi:

Joriy majburiyatlar:

To'lanadigan veksel, qisqa muddatli 10000

Hisoblangan foizlar 300

2005 yil 30 sentyabr – To'lash muddatidagi nominal summa plyus foizlarning to'lanishi:

Debet 6920 «To'lanadigan hisoblangan foizlar» 300

Debet 9610 «Foizlar bo'yicha xarajat» $(10\,000) \times (12\%) \times 9/12$ 900

Debet 6020 «To'lanadigan veksel, qisqa muddatli» 10000

Kredit 5110 «Hisob-kitob» scheti 11 200

Foizsiz veksellar. Foizsiz so'zi – bu turdagi veksellar uchun eng yaxshi tahrif emas, chunki xaqiqatda bunday veksellar foizlar to'lovini anglatadi. Bunday veksellarning nominal qiymati qarz summasini o'z ichiga olganligi kabi, bu qarz bo'yicha foizlarni xam uz ichiga oladi, bu to'lash muddatida yagona to'lov summasini tashkil qiladi. Qarzdor vekselning nominal qiymatiga teng bo'lgan summani emas, balkim nominal summasi va veksel bo'yicha foizlar orasidagi farqni oladi. Vekselda, olinadigan pul mablag'lar deb ko'rsatilgan summa – bu nominal qiymatning real foiz stavkasini qo'llash natijasida diskontlangan qiymatidir. Qolgan summa, yahni diskontlangan pul mablag'lar qiymati va vekselning nominal qiymati orasidagi farq, foiz hisoblanadi. Real foiz stavkasi shunga o'xshash bo'lgan risk darajasi bilan xujjatlarda qo'llaniladigan bozor foiz stavkalariga qarab aniqlanadi.

To'lanadigan pul mablag'lari va mulklar shaklidagi to'lanadigan dividendlar. Direktorlar kengashi tomonidan ehlon qilingandan keyin, pul mablag'lari va mulk shaklidagi dividendlar, agar ular kelgusi yil yoki operatsion tsikl davomida, ulardan qaysi biri uzunroq bo'lishiga bog'liq xolda, joriy majburiyat deb aks ettirilishi kerak. Pul mablag'lari va mulk shaklidagi dividendlar xuquqiy asosda ehlon qilingan sanadan to'lanish sanasigacha majburiyat deb aks ettiriladi. Direktorlar kengashi tomonidan rasman ehlon qilinmagan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar va boshqa xar qanday dividendlar bo'yicha majburiyatlar tan olinmaydi. Kumulyativ imtiyozli aksiyalar bo'yicha majburiyatlarda dividendlar moliyaviy hisobotlarning tushuntirish xatlarida ochib berilishi kerak.

Hisoblangan majburiyatlar. Hisoblangan majburiyatlar uz ichiga tahtil to'lovlari, mukofotlar va kreditorlarga beriladigan, lekin xali to'lanmagan foizlarni oladi. Hisoblangan majburiyatlar hisobot davri oxirida tuzatish yozuvlarini kiritish orqali aks ettirilishi mumkin.

Bo`naklar va qaytariladigan depozitlar. Kompaniya mijozlardan va xodimlaridan depozitlar olganda maxsus majburiyat vujudga keladi. Depozitlarni kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan majburiyatlarni to'lash yoki bitimni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish kafolati sifatida mijozlardan olish mumkin. Masalan, buyurtma olinganda, kompaniya buyurtmani bekor qilish xolatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun bo`nak to'lashni talab qilishi mumkin. Pul mablag`larni olayotgan kompaniyada bunday bo`naklar natijasida xo`jalik muomalasining yakunlanish paytigacha majburiyatlar kelib chiqadi. Bo`naklar pul mablag`larni debetlash va majburiyat yoki mijoz depozitlari kabi schyotni kreditlash orqali aks ettiriladi.

**Kelgusi davr xarajatlari (bo`nak tarikasida olingan daromadlar).** Yukni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatishdan oldin bo`nak tarikasida olingan pul mablag`lari bo'yicha majburiyat kelib chiqadi. Daromadni identifikatsiya qilish tamoyiliga asosan, bu mablag`lar daromad deb tan olinishi mumkin emas. Bo`nak tarikasida olingan daromadlarga: kollejda ukish uchun to'lov, ijara to'lovi, chiptalarning sotilishi va jurnallarga obuna bo'lish uchun to'lovlar misol bo'la oladi. Bunday xo`jalik muomalalar pul mablag`larning debeti va tegishli joriy majburiyatlar schetlari krediti bo'yicha aks ettiriladi. Ko`pincha «kelgusi davr daromadi» deb ataladigan bu schet, aniqlovchi so'zga ega bo'lishi mumkin, masalan obuna uchun to'lovni olganda u obunadan olingan kelgusi davr daromadi bo'lishi mumkin. Bu schet boshqa nomlarga xam ega bo'lishi mumkin, masalan: "oldindan to'langan obunadan daromad" yoki "bo`nak tarikasida olingan obunadan daromad".

Keyinchalik, maxsulot yetkazilgan yoki xizmatlar ko'rsatilgan, va daromad xam xaqiqatdan ishlab olingandan keyin, kelgusi davr daromadlari schyoti kamayadi, daromadning tegishli schyoti esa kreditlanadi. Bu oxirgi yozuv odatda

yil oxiridagi tuzatish yozuvlaridan biri hisoblanadi. Misol: 2004 yil 1 noyabrda “Zoreks” kompaniyasi kelgusi olti oy uchun 6,000 summada ijara to'lovini oldi. Hisobot davri 31 dekabrda tugaydi. Yozuvlar quyidagicha bo'ladi:

Bo`nak tarikasida olingan ijara to'lovi:

Debet Pul mablag`lar	6 000
Kredit Bo`nak tarikasida olingan ijara daromadi (yoki ijara bo`yicha kelgusi davr daromadi)	6 000

Summaning ishlab olingan qismi bo`yicha tuzatish yozuvi:

Debet Bo`nak tarikasida olingan ijara daromadi (yoki ijara bo`yicha kelgusi davr daromadi)	2 000
Kredit Ijaradan olingan daromad (6 000) (2/6)	2 000

Kelgusida xizmat ko`rsatish bo`yicha majburiyatga boshqa misol kabelli televidenie bo`lib hisoblanadi, qaysi-ki, pul mablag`lari xizmat ko`rsatilgunga qadar yig`ib olinadi. Kompaniya uz majburiyatlariga xizmatlar uchun oldindan to'lov deb nomlanadigan schetni qo`shadi.

Kafolat majburiyatlari. Agar, kompaniya sotish vaqtida o`z maxsulotiga kafolat bersa, unda majburiyat butun kafolat muddati davomida mavjud bo`ladi. Kafolat summasini sotish amalga oshirilgan davrda xarajatlar schetlarining debeti bo`yicha aks ettiriladi, chunki kafolat maxsulot yoki xizmatning sifat tavsifi va sotib olishga undaydigan sabablardan biri hisoblanadi. O`tgan tajribadan kelib chiqqan xolda, kelgusi davrga berilgan kafolatlarning kompaniyaga kelib tushadigan summasini hisoblash mumkin. Ayrim tovarlar yoki xizmatlar axamiyatli bo`lmagan kafolat xizmatini talab qiladi, boshqalari esa ko`prok xizmat ko`rsatishni talab qilishi mumkin. SHunday qilib, tovar yoki xizmat birligining o`rtacha xizmat ko`rsatish qiymatini aniqlash mumkin.

Qayta moliyalashga tegishli bo`lgan qisqa muddatli majburiyatlar. Kompaniya o`zining aylanma kapitali bo`yicha hisobot ko`rsatkichlarini yaxshilash uchun joriy majburiyatlarni uzoq muddatlilarga qayta klassifikatsiyalash sabablariga ega bo`lishi mumkin. Qayta klassifikatsiyalash sabablaridan biri shu

bo'lishi mumkinki, kompaniya qarzni qayta moliyalashtirmoqchi bo'lsa, u joriy majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishni rejalashtirmaydi. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlarni hisobga olish.

Xo'jalik yurituvchi subhektlar uzlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida boshqa subhektlar bilan doimo aloqada bo'ladilar:

- istehmolchi-xaridorlarga tayyor maxsulotlarini sotadilar, ishlarni bajaradilar, xizmat ko'rsatadilar, bo'nak yoki qarz beradilar;
- o'z navbatida boshqa subhektlar oldida majburiyatlari paydo bo'ladi, yahni olgan xom-ashyo va materiallarning qiymatini to'lash yuzasidan mol yetkazib beruvchilar oldida bajargan ishlari yuzasidan pudratchilar oldida, istehmol qilingan xizmatlar yuzasidan xizmat ko'rsatuvchilar oldida va xokazo.

Majburiyatlar bu hisobot davrida yoki oldingi davrlarda vujudga kelgan qarzar (kreditorlik) bo'lib, ularning qoplanishi (yahni sundirilishi) iqtisodiy nafning kamayishiga, yahni mavjud aktivlarning kamayishiga olib keladi. Majburiyat subhektning turli kelishuvlarni bajarishi natijasida vujudga keladi va tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar yuzasidan kelgusidagi to'lovlar uchun xuquqiy asos bo'lib hisoblanadi.

5. Uzoq muddatli qarzlarni hisobini yuritish.

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilishning kontseptual asosi" nomli "Buxgalteriya hisobining milliy standarti (O-BXMS) ilgari sodir bo'lgan muomalalar yoki voqealarning natijasida yuzaga kelgan subhektning yuzaga kelgan majburiyatlarini aniqlaydi. Ushbu majburiyatlar asosan uzoq muddatli aktivlarni barpo qilish qurish va sotib olish muomalalarining natijasidir.

Ularni tugatish (to'lash), aktivlarni ko'chirish yoki ulardan foydalanishga, ishlarni bajarishga, xizmat ko'rsatishga yoki kelajakda iqtisodiy nafning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Ushbu majburiyatlar subhektning xar xil kelishuvlari natijasida yuzaga keladi va olingan tovar-moddiy zaxiralari, ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlarni qabul qilib olish yuzasidan kelgusi to'lovlar uchun yuridik asos bo'lib xizmat qiladi va subhektning boshqa yuridik va

jismoniy shaxslarga boʻlgan qarz majburiyatlarini tasdiklaydi. Uzoq muddatli majburiyatlar - debitorning (qarz beruvchining) xaqiqiy balans sanasidan yoki uning faoliyati qismidan bir yildan oshik muddatda toʻlanishi mumkin boʻlgan qarzlardir. Amaldagi qonunga muvofiq chet el valyutasida vujudga kelgan majburiyatlar, ushbu boʻlimda soʻmda hisobga olinadi (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Banki belgilagan kurs boʻyicha chet el valyutasini xar oyda qayta baxolash yuli bilan aniqlanadi), ushbu majburiyatlar boʻyicha hisoblashish va toʻlovlar valyutada aks ettiriladi. CHet el valyutasi bilan amalga oshirilgan muomalalar boʻyicha xorij valyutasi, kursining sumga nisbatan farqlari 9640-"Kursning ijobiy farqlaridan olingan daromadlar" va 9620-"kursning salbiy farqlaridan koʻrilgan zararlar" schyotlarida hisobga olib boriladi.

Bu boʻlimda quyidagi hisob schyotlarida toʻlov va majburiyatlarning hisobini yuritish tartibi boʻyicha axborotlar yigʻiladi:

- 7000-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga toʻlanadigan uzoq muddatli qarzlar" ni hisobga oluvchi schyotlar
- 7100-"Boʻlimlarga boʻlgan uzoq muddatli majburiyatlar" ni hisobga oluvchi schyotlar
- 7200-"muddati uzaytirilgan uzoq muddatli majburiyatlar" ni hisobga oluvchi schyotlar
- 7300-"Xaridor va buyurtmachilardan olingan boʻnaklar"ni hisobga oluvchi schyotlar
- 7800-"Uzoq muddatli qarzlar" ni hisobga oluvchi schyotlar
- 7900-"Boshqa shaxslarga boʻlgan uzoq muddatli qarzlar" ni hisobga oluvchi schyotlar

Xoʻjalik yurituvchi subhektlar uzlarining faoliyati jarayonida asosan uzoq muddatli aktivlarni kurish, sotib olish bilan bogʻlik boʻlgan muomalalarni mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan amalga oshiradilar. Ushbu muomalalar natijasida, agarda hisoblashish shaklida amalga oshirilsa olgan mulklarning qiymatgʻi keyinchalik 1 yil ichida yoki undan koʻp vaqtda toʻlanadi. SHartnomada

kelishilgan to'lovlar bo'yicha pudratchi va mol yetkazib beruvchilar oldidagi uzoq muddatli majburiyatlar xaqidagi quyidagi ma'lumotlarni umumlashtirish lozim:

- subhektga olingan, lekin ularning qiymati to'lanmagan moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, xizmatlar, uskunalar va xokazolar bo'yicha hisoblashishlar;
- hisoblashishlari rejali to'lovlar tartibida olib boriladigan moddiy boyliklar, ishlar, xizmatlar uchun;
- moddiy boyliklarni qabul qilishda aniqlangan ortiqcha summalar yuzasidan hisoblashishlar.

Ushbu yuqorida keltirilgan muomalalarni qayd qilish va ularning ustidan nazorat o'rnatish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

7010-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"

7020-"Berilgan vasiqalar"

7010-"Mol yetkaziyu beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" schyotida subhekt tomonidan olingan TMZ, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa aktivlar uchun subhektning mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning oldidagi uzoq muddatli qarzini aks ettiradi.

7010-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" schyoti xaqiqiy olingan TMZ, qabul qilingan ishlar va foydalangan xizmatlarning qiymati summasiga kreditlanadi va ushbu boyliklarni yoki tegishli xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debet tomoniga qayd qilinadi.

7010-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar" schyoti bo'yicha analitik hisob xar bir taqdim etilgan schyot va majburiyatlar (rejali to'lovlar tartibida-xar bir mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar) bo'yicha yuritiladi.

7000-Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning chizmasi. Xozirgi davrda yirik kompaniya va firmalar xaridorlarni jalb qilish va bozorlarga kirish maqsadida tegishli qulay muxitga ega bo'lgan xududlarda uzlarining bo'limlari, filiallari va

vakolatxonalarini ochmoqdalar. Ushbu bo`linmalar mustaqil balansga ajratilib yuridik kuchga ega bo`ladi.

Xo`jalik yuritish faoliyatida bosh subhekt bilan ushbu mustaqil balansga ajratilgan (MBA) bo`limlar o`rtasida hisoblashishlar, yahni qarz majburiyatlari yuzaga keladi, chunki ular bosh subhekt bilan joriy aktivlar, pul mablag`lariva uzoq muddatli aktivlarni bir biridan olish va berish bilan boglik muomalalarni amalga oshiradilar. Natijada ushbu uzaro hisoblashishni qayd qilish va uning ustidan nazorat o`rnatish zaruriyati tugiladi.

7010-"Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to`lanadigan schyotlar"

Schyotlarning kreditidan		Schyotlarning debetiga	
Debet		S-N	Kredit
4010-	Xaridorlarning qarz summasini inkossatsiya qilish	O`rnatish uchun olingan mashina va uskunalarning qiymati	-0700
4310-	Ilgari berilgan bo`naklarning hisobga olinishi	Kapital ko`rilish uchun pudratchilarning bajargan ishlari va ko`rsatgan xizmatlari	-0810, 0830
5110, 5200, 5500-	Qarzlarning bankdagi hisoblashish schyotlaridan to`lanishi (7000-6000)	Mol yetkazib beruvchilardan olingan TMZ qiymati	-1010, 1090, 2900
6810, 6820, 7810-	Qarzlarning bankning kreditlari va boshqa qarzlar hisobidan to`lanishi	Ustirish va bokish uchun olingan xayvonlarning qiymati	-1100
7820-	Qarz summasining vasiqa bilan almashtirilishi	Tegishli tarmoqlarga, yaroksiz maxsulotlarni tuzatish, tayyor maxsulotlarni sotish, mahmuriyatga ko`rsatilgan xizmatlarning qiymati	2010, 2300, 2510, 2610, 2710, 9410, 9420,
9000 9220-	Qarz hisobiga TMZ berilishi	Kapital bulmagan ishlarni bajarish bo`yicha qarz	-1080
9390-	to`lov muddati utgan qarzlarni hisobdan chiqarish	Kelgusi davr xarajatlariga kiritilgan ishlar va xizmatlarning qiymati	-3100
		Olingan aktivlar bo`yicha hisoblangan va mol yetkazib beruvchilarga to`langan KKS	-4410
		TMZ mehyordan ortiqcha kamomadiga Keltirilgan TMZ tabiiy kamayish mehyoridagi summasi	-4860 -4730, 9430
		tabiiy ofatlarning oldini olish va natijalarini tugatish bilan boglik sarflarning summasiga	-9720

Ayrim balansga ajratilgan bo`limlar, filiallar va vakolatxonalar oldidagi bosh subhektning uzoq muddatli qarzlar (balans ichidagi hisoblashishlar)ning xolati va

xarakati to'g'risidagi axborotlar 7110-"Ayrim balansga ajratilgan bo'linmalarning oldidagi uzoq muddatli qarzlari" schyotida umumlashtirilib boriladi.

7100-Bo'linmalar oldidagi uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotning chizmasi

Schyotlarning kreditidan		Schyotlarning debetiga	
Debet	S-N		Kredit
6110- Uzoq muddatli qarzning tarkibiga uzgartirish kiritish, yahni joriy davrda to'lanadigan qismini aks ettirish	Bo'linmalardan turli moddiy boyliklarning olinishi va kapital quyilma xizmatlarining bajarilishi		-0100, 0400, 0700, 0800, 1000, 1100, 2800, 2900
	Ushbu muomalalarning aks ettirilishi, fakat TMZ olganda (hisob siyosatiga asosan).		-1510
	Olingan TMZ qiymatidagi farqlar summasi		-1610
	Bo'linmalar tomonidan sarflangan xarajatlarning aks ettirilishi		-2000, 2300, 2510, 2710, 9410, 9440, -2110
	Bo'linmalardan olingan yarim tayyor maxsulotlarning qiymati		-2110
	Bo'linmalarda amalga oshirilgan sarflarning kelgusi davr xarajatlariga olib borilishi		-3100
	Bo'linmalardan qarzga pul mablag'lari va yullanmalarning olinishi		-5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5900
	Sotib olingan maxsulotlar va aktivlarning tannarxini aks ettirish		-9100, 9210, 9220
	Bo'linmalarining daromadi xiso-biga tegishli bo'lgan zararlar summasini aks ettirish		-9430, 9720
	Bo'linmalarga bo'lgan qarzlarni to'lash sanasida valyuta kurslari o'rtasidagi farq (-) ning aks ettirilishi		-9630

Ushbu schyotda quyidagi mablag'lar va muomalalar bo'yicha vujudga kelgan bosh subhektning bo'linmalari oldidagi uzoq muddatli qarzlari hisobga olinadi:

- ajratilgan mulklar yuzasidan qarzlari;
- moddiy qiymatliklarning uzaro berilishi yuzasidan qarzlari;
- umumboshqaruv faoliyati bo'yicha sodir bo'lgan sarflarni o'tkazish bo'yicha qarzlari;

- bo`linmalar tomonidan bosh subhektning xodimlariga mexnat xaqi berish yuzasidan qarzlar va shunga o`xshashlar.

Ushbu 7110-"Ayrim balansga ajratilgan bo`linmalarining oldidagi uzoq muddatli qarzlar" schyotining kredit tomonida bo`linmalar bilan xar xil muomalalrning sodir bo`lishi natijasida vujudga kelgan majburiyatlarning summalari tegishli moddiy qiymatliklar, xarajatlar, pul mablag`lari va mulk schyotlari (qarzlarning turlari bo`yicha) bilan korrespondentsiyalangan xolda hisobga olib boriladi.

7110-"Ayrim balansga ajratilgan bo`linmalarining oldidagi uzoq muddatli qarzlar" schyoti bo`yicha analitik hisobi xar bir qarzning turlari, muomalalar va bo`linmalar ayrim olingan xolda yuritiladi.

Subhektlarning moliyaviy-xo`jalik faoliyati ayrim xollarda tomonlarning manfaati ko`zlangan xolda uzoq muddatli majburiyatlarning to`lanish muddatlari yana xam cho`ziladi (restrukturizatsiya). Natijada subhektning moliyaviy axvoli, to`lov qobiliyatini chuqurroq o`rganish maqsadida ushbu majburiyatlarning hisobini ayrim yuritish, ularni nazorat va chuqur, xar tomonlama taxlil qilishning zaruriyatini kelitib chiqaradi.

6. Majburiyatlar auditi.

Mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisobkitoblar korxonalar xo`jalik faoliyatida eng ko`p uchraydigan hisob-kitoblardir. Shuning uchun bunday hisob - kitoblarni tekshirish quyidagi asosiy ikki yunalish bo`yicha amalga oshirilishi zarur:

- ❖ olingan moddiy qiymatliklar (ish, xizmatlar) uchun to`lovlar yoki jo`natilgan tovarlar (bajarilgan ish va xizmatlar) uchun tushgan summalarning to`g`riligini aniqlash;

- ❖ moddiy qiymatliklarni kiringa olish va hisobdan chiqarishning to`liqligini tekshirish.

Mol etkazib beruvchi va xaridor o`rtasidagi hisob-kitoblar qoidaga ko`ra naqd pulsiz amalga oshiriladi va ular ikki guruhga bo`linadi: 1) tovar muomalalar bo`yicha, 2) moliyaviy majburiyatlar bo`yicha. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning

quyidagi asosiy shakllari mavjud: to'lov topshiriqlari, to'lov talabnomalari, akkreditivlar, inkassa topshiriqlari, cheklar va o'zaro talablarni o'zishga asoslangan hisob shakli.

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ham yuqorida bayon qilingan, barcha hisob-kitob muomalalari uchun xos bo'lgan umumiy qoidalariga asosan o'tkaziladi. Hisob - kitob ma'lumotlarining mosligini tekshirish balans va hisob registrari ma'lumotlari tengligini aniqlashdan boshlanadi.

Agar hisob-kitob ma'lumotlarini solishtirish amallarini bajarish chog'ida nomuvofiqliklar aniqlansa, auditor ularning katta-kichikligini va vujudga kelish sabablarini aniqlaydi.

Hisob va hisobot ma'lumotlarining o'zaro tengligi aniqlaganidan so'ng, auditor mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar qoldig'ining haqqoniyligini baholashi kerak. Shu maqsadda u quyidagilarni tekshiradi:

- analitik hisob registrarida dastlabki hujjatlar va shartnomalarning raqamlari hamda to'zilgan sanalari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi;

- analitik hisob registrarida ko'rsatilgan shartnomalar va dastlabki hujjatlarning haqiqatda mavjudligi (tanlab tekshiriladi);

- dastlabki hujjatlar va hisob registraridagi ma'lumotlarning mosligi (tanlab tekshiriladi).

Majburiyat summalarining hujjat bilan tasdiqlanmaganlari shubhali qarzdorliklar qatoriga qo'shiladi. Bunday qarzlarning haqqoniyligi hisob-kitoblarni inventarizatsiya qilish (solishtirish dalolatnomasi tuzish) yo'li bilan tasdiqlanadi.

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarga doir qarzdorliklar haqqoniyligini baholashda ularning vujudga kelish muddatlari nazorat qilinadi:

hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlar bajarilishining belgilangan chegara muddati o'tib ketgan, talab qilib undirib olinmagan debitor qarzlarning yo'qligi.

Hisob-kitoblarni inventarizatsiya qilish materiallarini tekshirish mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar qoldiqlarining haqqoniyligini baholashda muhim ahamiyatga egadir.

Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarga doir muomalalar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tekshiriladi:

- shartnomalar mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilishini tekshirish;
- olingan moddiy qiymatlik(ish, xizmat)lar to'liqligi va to'g'ri kirim qilinishini tekshirish;
- moddiy qiymatlik (ish. xizmat)lar uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lanishini tekshirish.

-auditor dastavval mahsulot etkazib berish shartnomalari va ish bajarish va xizmat ko'rsatish uchun boshqa xo'jalik shartnomalarining mavjudligi, hamda shartnomalarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlaydi. Shartnomalar amaldagi qonunchilik talablariga mos kelishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va shartnoma qonunchiligiga ataylab rioya qilinmasdan to'zilgan shartnomalar va ular asosida amalga oshirilgan muomalalar haqiqiy emas deb topiladi. Auditorlar tekshirilayotgan korxonada bunday holatlar yo'qligini aniqlashlari lozim.

Shundan so'ng olingan moddiy qiymatlik(ish, xizmat)lar uchun mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarning to'lig'icha to'g'ri baholanganligi va hisob registrlarida aks ettirilganligi to'g'risida dalillarga ega bo'lishi zarur.

Auditorlar dastlabki hujjatlar ma'lumotlarini shartnomalar, buyurtmalar, schyotfakturalar va loyiha -smeta hujjatlarining ma'lumotlari bilan solishtirish natijasida olingan moddiy qiymatlik(ish, xizmat)larni kirim qilishning to'liqligi, to'g'riligi va o'z vaqtidaligi to'g'risida dalillarga ega bo'ladi.

Dastlabki hujjatlarni tekshirishda barcha hisoblashuv-to'lov hujjatlarida QQS summasining alohida satr bilan ajratib ko'rsatilganligiga va QQS summasining hisob-kitob yo'li bilan ajratib ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligiga (me'yoriy hujjatlarda belgilangan holatlardan tashqari) e'tibor qaratiladi. Auditor

ushbu talablarga rioya qilinishini tekshirish natijasida olingan moddiy qiymatlik(ish, xizmat)lar bo'yicha QQS ni hisobga olishning asoslanganligini tasdiqlovchi dalilga ega bo'ladi. Uning qoplanishi to'langan, kirim qilingan va ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatilgan qiymatliklar bo'yicha amalga oshiriladi.

Hisob-kitob hujjatlari hali etib kelmagan moddiy qiymatlik(ish, xizmat)larni tekshirishda ushbu olingan qiymatlik (ish, xizmat) larning puli to'langan, lekin yo'lda kelayotgan (debitor qarz) sifatida hisobda turmaganligi aniqlanadi.

Xorijdan olingan import mahsulot(ish, xizmat)lar uchun hisob-kitoblar bo'yicha tekshiruv o'tkazilganda, mulkchilik huquqi o'tgan paytni , moddiy qiymatlik (ish, xizmat)larni kirim qilish sanasiga amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valyuta kursini va to'lov hujjatlarining to'lanishini, kurs farqlarini, qo'shilgan qiymat solig'i summasini va frankirovka (tovarni xaridorga etkazib berishda transport xarajatlarini qoplash va hisob-kitob qilish) shartlarini aniqlashning to'g'riligi tekshiriladi.

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar schyotlarining to'lanishini tekshirishda auditor quyidagilarni aniqlaydi:

- * qarzlarni qoplash bo'yicha muomalalarning tegishli to'lov hujjatlari (bank ko'chirmalari va to'lov topshirig'i, o'zaro talablarni hisobga olish dalolatnomalari, cheklar va shunga o'xshash) bilan tasdiqlanganligi;

- * to'lov hujjatlarining haqiqiyliigi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi (barcha majburiy rekvizitlarining mavjudligi, QQS summasining alohida satr bilan ajratib ko'rsatilganligi, bank shtampasi, chet tildagi hujjatlarning tasdiqlangan tarjimasini va shunga o'xshash);

- * to'lov hujjatlari ma'lumotlarining 3110 - «Oldindan to'langan ijara haqi», 3120-«Oldindan to'langan xizmat haqi», 3190-«Boshqa oldindan to'langan xarajatlar», 4310-«Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar», 6010- «Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» (joriy qismi), 7010-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» (o'zoq muddatli qismi) schyotlari bo'yicha hisob registrlarining ma'lumotlariga mosligi; ushbu schyotlar bo'yicha hisob registrlari ma'lumotlarining 5110, 5210,

5220, 4310, 4010, 4020, 6310, 4220, 4230, 6870, 4810-4890, 6810, 6820, 6830 va 6890 schyotlar bo'yicha hisob registrlariga mosligi.

Qarzdorliklarning o'zaro hisoblashish tartibida qoplanishini tekshirish natijasida, auditor o'zaro hisob-kitoblar uchun asos (shartnoma, tomonlardan birortasining o'zaro hisob-kitoblar tartibidagi to'lovni amalga oshirish to'g'risidagi iltimosnomasi) mavjudligini, qarz summasi va qoplash sanasini, hamda hisob registrlarida aks ettirishning to'g'riligini aniqlaydi.

O'zaro talablarni hisobga olish, hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi va har ikkala tomon ishtirokida to'zilgan, o'zaro talablarni hisobga olish to'g'risidagi tomonlardan birortasining xati (arizasi). Dalolatnomalarda majburiy rekvizitlardan tashqari, qarzdorlikni vujudga keltirgan shartnomalar va dastlabki hujjatlar ma'lumotlari, QQS summasi alohida ajratilgan holda ko'rsatilishi lozim. Da'vo muddati o'tib ketgan qarzdorliklar bo'yicha o'zaro talablarni hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi.

Amalga oshirilgan o'zaro qarz surishishlarning qonuniyligini tekshirishda, qabul qilingan va puli to'langan moddiy qiymatliklar bo'yicha QQSni hisobga qabul qilishning asoslanganligi va sotilgan tovarlar (ish va xizmatlar) bo'yicha QQS hisoblanishining to'liqligini aniqlashga maxsus e'tibor qaratiladi.

Berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish 4310-«Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar» schyotining hisob registrlari, bank ko'chirmalari va shartnomalar ma'lumotlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda mol etkazib beruvchilarga bo'naklarning o'z vaqtida va to'g'ri berilganligi va olingan moddiy qiymatliklar uchun hisoblashilganda ularning hisobga olinganligi aniqlanadi.

Auditor 3110, 3120, 3190, 4310, 6010, 7010 schyotlarning qoldiqlarini analitik hisob registrlari bo'yicha tahlil qilish natijasida, moddiy qiymatliklar etkazib berilgandan (ish, xizmatlar bajarilganidan) so'ng barcha berilgan bo'naklar bo'yicha yakuniy hisob-kitob qilinganini aniqlaydi.

Ushbu talabga rioya qilinayotganligini nazorat qilish nafaqat debitor va kreditor qarzlar aks ettirilishining haqqoniyligini, balki QQSni hisob-kitob qilishga

taqdim etishning o'z vaqtidaligi, chet el valyutasida berilgan bo'naklar bo'yicha kurs va summa farqlarini to'g'ri aniqlash uchun zarur.

Mol etkazib beruvchilar bilan shartli birliklardan foydalanib hisob-kitob qilinganida summa farqlarini aks ettirish to'g'riligi va quyidagi shartlarga rioya qilinishini tekshiradi:

- * summaviy farqlar sarflarni buxgalteriya tan olish sanasiga aks ettiriladi, ya'ni qarzning shakllanishi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi (6010, 7010 schyotlar bo'yicha yozuvlar);

- * tovar-moddiy zahiralar va asosiy vositalar haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha tan olinadi, ya'ni kirim qilingan moddiy resurslar qiymati summaviy farqlarga to'zatiladi; ijobiy summa farqlari kirim qilingan moddiy resurslar qiymatini oshiradi (Dt 0820, 0830, 0840, 0890, 1010-1090, 2910 schyotlar va Kt 6010 yoki 7010 schyot va Dt 4410, Kt 6010 - QQS summasi); salbiy summa farqlari kirim qilingan moddiy resurslar qiymatini kamaytiradi. (Dt 0820, 0830, 0840, 0890, 1010- 1090, 2910 schyotlar, KT 6010 yoki 7010 schyot qizil storno bilan va Dt 4410, Kt 6010 yoki 7010 schyot - QQS summasiga qizil storno bilan); moddiy zahiralar sotilganda yoki ishlab chiqarishga berilganda (Dt 2010, Kt 6010 (7010), Dt 4410, Kt 6010 (7010) - QQS).

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni tekshirish yakunida, auditor aniqlangan kamchiliklar va nomuvofiqliklarni umumlashtiradi hamda qoldiqlar haqqoniyligining dastlabki baholanishini aniqlashtiradi.

XULOSA.

Moliyaviy hisobotga yozilgan tushuntirish xati korxonaning hisob siyosatini yoritish, uning mulkiy va moliyaviy holatini xaqqoniy baholashi uchun qo`shimcha ma'lumotlar bilan hisobdan foydalanuvchilarni tahminlashi kerak. Tushuntirish xatida ayrim qoidadan chetga chiqish xollari bo`lmaganda, korxonaning moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobini yuritish qoidalaridan kelib chiqqan xolda tuzilganligi ko`rsatilishi kerak. Xar bir qoidadan chetga chiqishlarning sabablari va natijasi tushuntirish xatida ko`rsatilishi kerak. Bulardan tashqari tushuntirish xatida korxona haqida qo`shimcha ma'lumotlar xam ke`ltiriladi. Hisobotga korxona boshligi va hisobchisi imzo chekib, unga korxona muxrini bosish bilan tasdiklaydilar. Hisobot yil choragi va yilda davlat muassalari (Soliq inspeksiyasi, statistika bo`limi, bank, yuqori tashkilot)ga takdim etilishi shart.

1996 yil 24-yanvardagi "To`lov intizomini va o`zaro hisob-kitoblar tizimini mustaxkamlash chora tadbirlari to`g`risidagi" farmonlarini bajarish borasida muayyan ishlar olib borilaetganligiga qaramasdan debitorlik-kreditorlik qarzlar boshqarish og`ir axvolda qolmoqda. Jumladan, 1998 yil 1-yanvar holatiga ko`ra muddati o`tgan debitorlik qarzlar 50,2 mlrd so`mni, kreditorlik qarzlar e`sa 80,3 mlrd so`mni tashkil etgan. Eng ogir tomoni shuki, ularni undirishning iqtisodiy asosi yil sayin ogirlashib bormokda. Debitorlik kreditorlik qarzlarining oldini bitta dastur asosida va uni nazorat qilish asosida uddalab bulmaydi. Buning uchun bevosita keng kamrovli dastur ishlab chiqish lozim.

Debitorlik-kreditorlik majburiyatlarining oldini olish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish mahkuldir:

- o`zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning mahsulligi oshirish va ularning shartlariga qathiy amal e`tish;

- muddati o`tkazib yuborilagn xar qanday to`lovlar summasi bo`yicha xuquqiy javobgarlik shartlarini be`lgilash;

- hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

- dargumon qarzlar bo`yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va x.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 1998. 48b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Norma maslaxatchi. – T.: Soliqqa oid qonun hujjatlari to'plami. 2008. №1.
- 3.«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgust. Xalq so'zi. 1996 yil 12 sentyabr.
4. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (Yangi tahriri). O'zbekistonning Yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2001. – 260 b.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori. 1999 yil 5 fevral № 54.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

6. «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni byudjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom 02.04.2005 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom». – T.: O'zR Qonun hujjatlari to'plami, 2006. 42 (230)-son.

3. Boshqa me'yoriy hujjatlar

8. O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari. O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi – T.: 2003. – 186 b.

4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari va mahruzalari

9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston - 2009. – 54 b.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiyalash qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir va asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston – 2010. – 77 b.

5. Kitoblar va darsliklar.

1. Abdullaev A, Qayumov I. Buxgalteriya hisobi. – T.: «Minhoj».- 2002 y.
2. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. – T.: Moliya. 2002. – 672 b.
3. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.K. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlilning xususiyatlari. O`quv qo`llanma. – T.:TMI, 2004. –148 b.
4. Gulyamova F.G. «Buxgalteriya hisobini mustaqil o`rganish uchun qo`llanma».T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004 y.
5. Zavalishina I.A. «Yangicha buxgalteriya hisobi». T. 2004 y.
6. Karimov va boshqalar. «Buxgalteriya hisobi», T. SHarq, 2004 y.
7. Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. – 152 b.
8. Ostanoqulov M. «Buxgalteriya hisobi nazariyasi», T. O`zbekiston, 1993 y.
9. Ochilov I., Azlarov D., Avloqulov A. Moliyaviy hisobi-2. O`q. qo`l.– T.: TMI, 2004. – 290 b.
11. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. – T.: G`ofur G`ulom 2008. – 252 b.
10. Xoshimov B.X. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: «SHarq», 2004.
12. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot. – T.: «Moliya».- 2003
13. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005. 320 b.

Internet saxifalari

14. www.finansexpress.uz.
15. www.pravo.eastink.uz (Iqtisodiy qonunlar to`plami).
16. www.buhgalt.ru.
17. www.gcomim.uz.
18. www.ziyonet.uz.